

## “Oshiqnoma” Turkum Dostonlari Tarkibida Qo‘Llangan Antroponimlarning Leksik–Semantik Xususiyatlari

*Buranova Dinora Ikramovna<sup>1</sup>*

O‘zbek tilshunosligida hali mutlaqo o‘rganilmagan yoki juda kam o‘rganilgan, yechilishi lozim bo‘lgan muhim masalalar anchagini. O‘zbek onomastikasi va ular zamirida hosil bo‘lgan atoqli otlar guruhini tarixiy-etnografik, struktural-semantik va tarkibiy etimologik jihatdan tadqiq qilish ana shunday dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Atoqli otlar tuzilishini o‘rganish o‘zbek tili tarixi, tarixiy leksikologiyasi va grammatikasining ba’zi muhim masalalarini hal qilishda, shuningdek, o‘zbek xalqining etnik kelib chiqishi, urug‘- qabila silsilasi urf-odatlari va uning boshqa xalqlar bilan bo‘lgan madaniy-iqtisodiy munosabatlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimiz va tarixiy an'analarimizni qayta tiklab, umrboqiy udumlarimizni ommalashtirishga zarurat tug‘ilgan hozirgi davrda bu mavzu yana ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Folklor onomastikasidagi lisoniy xususiyatlari lingvistik va nolingvistik sathning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki o‘zbek tilidagi antroponimlar va toponimlar (boshqa onomastik birliklar ham) bir tomonidan sinxron materiallar hisoblansa, ikkinchi tomonidan, ular juda qadimiy, ko‘hna nomlardir.

Folklor asarlarining onomastikasi (qahramonlar, devlar, parilarning ismlari, laqablar, taxalluslar, otlarning nomlari, folklor asarlarida uchraydigan turli-tuman joy nomlari: tog‘lar, cho‘llar, ko‘llar, shaharlar, mamlakatlarning atoqli otlari) esa hali yetarli darajada to‘planmagan va o‘rganilmagan. Onomastik birliklarni o‘rganishga kirishishdan avval, ular asos bo‘lgan atoqli nomlarga oid tarixiy-etnografik va insoniy ma’lumotlarni to‘la jamlab, ilmiy manbalar bilan mukammal tanishishimiz kerak bo‘ladi. Xorazm folklor onomastikasi, xususan, dostonlar bo‘yicha materiallar haligacha monografik tarzda chuqur tahlil qilingani yo‘q.

«Oshiqnoma» turkum dostonlarining tarixiy nomlarni atash motivlariga ko‘ra tasnifi, grammatic xususiyatlari va etimologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar hali o‘zbek tilshunosligida deyarli amalga oshirilmadi. Shu sababli biz ushbu ishimizda mazkur turkum dostonlari tilidagi onomastik birliklar, xususan, kishi ismlari tahviliga e’tibor qaratishni joiz deb topdik.

«Oshiqnoma» turkum dostonlari og‘zaki va yozma variantlarda yashab kelgan bo‘lsa, bu toifa dostonlarning og‘zaki variantlari juda kam uchraydi.

Dostonlar onomastikasi tarkibida kishi nomlari, qahramonlarga qo‘yilgan nomlar (antroponimlar) majmuasi alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu nomlar o‘zlariga xos bir qator xususiyatlarga egaki, bular ham etnografik, ham lingvistik (leksik–semantik va grammatic) jihatdan alohida va maxsus tekshirish obyektidir. Dostonlarda juda katta-katta voqealarni, ishlarni ozgina kishilar bajaradi va ular ma’lum joylardagina harakat qiladilar. Bu to‘plangan materiallardan ham ma’lumdir. To‘plangan nomlarning dostonlar bo‘yicha (ularning hajmiga qarab) taqsimoti har xil: Masalan: eng katta dostonlar sirasiga kiruvchi «Huriliqo va Hamro» dostonida 12 ta, «Ro‘yi Chin» dostonida 10 ta kishi nomi, «Kampir» dostonida 12ta, «Edigo» dostonida 10ta kishi nomi mavjuddir. Dostonlarda uchraydigan kishi nomlarining bir qismi o‘zlarining parallel variantlariga ega. Parallel nomlar deyilganda, bir qahramonni (bir shaxsni) atash uchun birdan ortiq nomning ishlatilishi ko‘zda tutiladi. Bunday parallel nomlar dostonlaridagi barcha qahramonlar personajlarida emas, balki asosiy qahramonlarda uchraydi. Ular ham (bosh qahramon) ma’lum sharoit taqozosizi bilan o‘z asl nomlarini yashirib, boshqa bir nom bilan o‘zlarini tanishtiradi yoki ma’lum voqeadan so‘ng biror qahramonga uning nomidan o‘zga yana bir nom beriladi. Shunday qilib bir shaxsni atash uchun ishlatiladigan parallel nomlar paydo bo‘ladi. Ular bir doston doirasida bo‘lishi mumkin. Masalan: «Rahimberdi»

<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti



nomi «Edigo» dostonida oldin Rahimberdi bo‘lib, keyin ma’lum bir sabablarga ko‘ra Adiga tarzida o‘zgaradi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan holat, ya’ni ismlarning parallel ishlatalishi faqat «Edigo» dostonida uchraydi.

Quyidagi nomlar esa bir doston doirasida uchraydi: (Oshiq Ahmad, Oshiq Muhammad, Sabiniyoz, Hamro, Sayodxon, Kamoljon, Bonu, Mamatxon, Xisrav shoh Qosim, Hamro, Xurliqo, Sanam, Shaxbon ibn Shohruh («Sayod va Hamro»). Xirmondali, Gulixiromon, Xiromon, Dari Xiromon («Xirmondali» dostoni tarkibida), Oshiq Karam, Karam o‘g‘lon («Xirmondali»). Lekin bu ikkala nomlar statistikasi uncha ko‘p emas. Dostonlar antroponomikasi orasida birmuncha epizodik nomlar ham uchraydi. Bunday nomlarga biz dostonlarda bevosita harakat qilmaydigan, o‘zlar qatnashmaydigan kishilarning nomlarini kiritamiz. Bu nomlar asosan «qadimgi zamon»larda o‘tgan qahramonlar, aniq ma’shuqlar, sevishgan vafodor mardlarning ismlari yoki biron dostonni bir shoir kitob turganda eshitib turgan shaxslar (bularning nomlari dostonga shoir tomonidan atayin kiritilishi mumkin)ning otlari va yana boshqa xildagi nomlar (pirlar, devonalar, avliyolar)ning majmuasidan iborat bo‘lib, shoirlar bu ismlarni turlicha maqsadlar (o‘z qahramonini rag‘batlantirish, unga ilhom berish, voqeani rivojlantirish va boshqalar) uchun eslab o‘tadilar. Ko‘rib chiqilgan dostonlarda epizodik nomlarning quyidagi guruhi mavjud.

1. Sevishganlar ismlaridan keltirilgan epizodik nomlar: *Yusuf va Zulayho* («Hurliqo va Hamro» dostonida):

*Haqning tavrotini o‘qigan Muso,  
To‘rtinchisi osmonda o‘tirgan Iso,  
Oshiqlarning piri Yusuf Zulayho,  
Bugun mango madad berar kuningdur.  
Uzro* («Xandon botir» dostonida)  
*Zebodur qaddi kamoli,  
Uzrodek sumbati bor.*

2. Pirlar, qalandarlar, avliyolar ismlaridan keltirilgan epizodik nomlar: Shish, Idris, Ibrohim, Is’hoq («Roi Chin»). Masalan:

*Hazrat Odamdur otamiz, Shish, Idris maqtadomiz,  
Nuh payg‘ambar ko‘b sanomiz, sango topshirdim yolg‘izim.*

«Roi Chin» dostonida Nuh, Muso, Shish, Yoqub, Yahyo pir, Iso, Umar, Shohimardon, Ali, Abubakr, Xovva ona kabi nomlar mavjud.

Kishilarga laqab qo‘yish o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan qadimiy odatlardan biri bo‘lib, u turli yo‘llar bilan qo‘yiladi. Bularning ham o‘ziga xos sabablari bor. Dostonlar onomastikasida laqablar asosiy nomlarga qo‘sishma nominativ kategoriyalidir.

«Laqab shaxsning tashqi ko‘rinishi yoki xarakterdagи ma’lum belgi yoki xususiyatga ko‘ra, uning ijtimoiy ahvoli, kasb–korи yoki nasl–nasabiga ko‘ra nomlanishidir».

Laqablar tasodifiy yuzaga kelmaydi, albatta, odamlar muayyan sabablar tufayligina biror kishiga beradi. Laqab egasi keyinchalik, ko‘pchilik orasida shu nom bilan taniladi. E.Begmetovning ta’kidlashicha, laqab uchun asos bo‘lgan holat yoki xususiyat, yo‘qolgan taqdirda ham laqab saqlanib qolaveradi va natijada ma’lum vaqt o‘tgach, o‘sha kishining butun urug‘iga nom bo‘lib qolishi ham mumkin. Ayni shu holat laqablarning kishi nomi o‘rnida qo‘llanishga sabab bo‘lgan. Laqablar ham kishilarga atab qo‘yiladigan atoqli otlarga o‘xshab, bir kishining boshqa kishidan (bir nomga ega bo‘lgan bir necha kishini) ajratish, farqlash ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan.

Laqablar doston qahramonlari (to‘g‘rirog‘i personajlari)ning har biriga xos bo‘lgan individual belgi xususiyatlarini aks ettiradi. O‘rganilgan dostonlar ichida quyidagi laqablar uchraydiki, ularni biz quyidagi guruhlarga ajratdik:

1. Shaxsning kasb-korini vazifasini bildiruvchi laqablar: *Mamatso ‘yin sardor, Asadlixon.*



2. Shaxsning ijtimoiy mavqeい, lavozimini ifodalash asos bo‘lgan laqablar; *Xisravshoh, Abdullaxon, Mamatxon, To ‘kashoh, To ‘xtamishxon.*
3. Shaxsning yashash joyi, millati asos bo‘lgan laqablar; *Madinatul, Qag ‘riya, Topuri Chin.*
4. Insonning jismoniy jihatdan ustivorligi, kuchliligi, individual xususiyatlari asos bo‘lgan laqablar: *Kenjaboy ko ‘sa.*

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, laqablarning qo‘llanilishi jihatdan xalq dostonlari badiiy adabiyotga nisbatan jonli so‘zlashuv tiliga yaqin turadi va uning bu sohadagi bir qator xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun folklor asarlarida uchraydigan laqablar ham to‘planishi va ilmiy asosda o‘rganilishi kerak.

Dostonlar qadimda Xorazm hududida va undan chetda mavjud bo‘lgan hamda etnik jihatdan turkiy va turkiy bo‘limgan ko‘pgina urug‘lar, elatlari, qabilalar, xalqlar (etnonimlar) to‘g‘risida, bu urug‘ qabilalarning ijtimoiy ahvoli, yashash sharoitlari haqida qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkinki, bu masala ham Xorazm folklori onomastikasi bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot olib boruvchining e‘tiboridan chetda qolmasligi kerak. Dostonlardagi kishi nomlari onomastikasi bo‘yicha bog‘liq bo‘lgan yana bir masala mavjud. Bu masala garchi ko‘proq etnografik xarakterga esa bo‘lsa-da, lekin uni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bu qahramonlarga nom qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat, rasm-rusumlar masalasidir. Bu borada ham o‘zbek xalq dostonlari birmuncha ma’lumotlarni o‘zida saqlab kelmoqdaki, ular hozirgi vaqtgacha o‘zbek xalqi orasida saqlanib kelayotgan nom qo‘yishiga oid rasm-rusumlarga aynan mos keladi. Masalan: «Oshiqnoma» turkum dostonlarida bosh qahramonga nom qo‘yilishini turli xil ifodalanishi kuzatiladi: «Elni katxudolarini yig‘nab bolaga od qo‘yishini maslahat etdi».

Shunday qilib, dostonlarning atoqli nomlar etnografiyasiga oid ma’lumotlarida ham qimmatli faktlar bo‘lib, ularni qunt bilan tarixiy-qiyosiy shaklda o‘rganish kerak bo‘ladi. Buning uchun xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari ham, jumladan; ertaklar, rivoyat va afsonalar ham o‘rganishga qo‘yilsa, tadqiq qilish oson kechadi. Chunki dostonlarda uchrangan onomastik birlıklarning ba‘zi birlari ertaklarda yoki rivoyatlarda ham uchrashi mumkin. Agar ularni birgalikda qiyosiy-tarixiy rejada o‘rgansak, dostonlar onomastikasining statistik xususiyatlari to‘la aniqlanadi; takrorlangan nomlar, epizodik nomlar, parallel nomlar, ko‘p funksiyali nomlar, otlar, parilar, pirlar nomlarining statistikasi va qo‘llanish doirasi belgilanadi, laqablar to‘laligicha qayd qilinadi va ularning xususiyatlari to‘la ochiladi, atoqli otlar etnografiyasiga oid ma’lumotlar ko‘payadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Девонова И. “Хурлиқо ва Ҳамро” достони вариантларининг қиёсий таҳлил ва бадиияти. Филол. фан. номзоди... автореф. –Т., 1999.
2. Турдимов Б.Ж., Бегматов Э.А. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2-сон. Тошкент, 1996.
3. Турдибеков М. «Шажараи турк» ономастикасининг баъзи нолисоний асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. - №2. 2002.
4. Ўрозов О. Ономастик материалдан фойдаланиш. // Филологик тадқиқотлар. Урганч, 2003.
5. Шамсиева М. Кишиларга атаб қўйилган номлар. // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: Фан, 1962.
6. Ошиқнома. Хоразм достонлари. Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, Г.Отажонова, С.С.Рўзимбоев. – Урганч, 2006.

